Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Kushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy budgetlar daromadlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Vnедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Аброр Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi .....	1310
Maxmudova Muxlis Qodirjon qizi	



Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
<b>Davronov Saxobiddin Faxriddinovich</b>	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili .....	1324
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni.....	1334
<b>Ismailov Xusanboy Muhammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich</b>	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective .....	1338
<b>Kholiyorova Shokhista</b>	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari .....	1341
<b>Taniyev Ahmadjon Bahromovich</b>	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari .....	1347
<b>Masharipov Maxmud Bekturdiyevich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni .....	1352
<b>O. Jono'zoqov</b>	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish .....	1358
<b>Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li</b>	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation .....	1364
<b>Fayzieva Nargiza Rabimovna</b>	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiyo yo'nalishlari va tahlili.....	1371
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni .....	1375
<b>Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari .....	1380
<b>Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich</b>	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati .	1389
<b>Xalikov Suyun Ravshanovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar .....	1394
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b>	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherkchilik loyihibalarida islomiy	
moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
<b>Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li</b>	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash.....	1411
<b>Maxkamboyev Komil Abdulxakovich</b>	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi	
samaradorligini oshirish masalalar .....	1416
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b>	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jaib qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari .....	1431
<b>Alimbayeva Sevara Alimbayevna</b>	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari .....	1437
<b>Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
<b>Mirzayev Bobur Soyibjonovich</b>	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish .....	1448
<b>Davletov Ikram Raximberganovich</b>	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире .....	1452
<b>Нуриллаев Рахмат Ярашевич</b>	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish .....	1458
<b>Mavlanov G'olib</b>	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida	
"yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari .....	1464
<b>Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich</b>	
Mетод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной	
компетенции студентов высшей школы .....	1470
<b>Мохоров Дмитрий Анатольевич</b>	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari .....	1476
<b>Askarov Zoxidjon Sadikjanovich</b>	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yo'llari .....	1481
<b>Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich</b>	



Marketing Mix, Retail Trade, Material Environment in Marketing.....	1485
<b>Egamberdiyev Muzaffar</b>	
Davlat tomonidan aholi bandligini tartibga solish ilmiy konsepsialarining evolyutsiyasi .....	1489
<b>Ismoilov Azizbek</b>	
Significance of Investment Activity in Tourism and its Development.....	1493
<b>Utkirjan Akhmedov</b>	
Корпоративные структуры и их влияние на развитие учета и отчетности .....	1498
<b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>	
Происхождение и роль социального сельского хозяйства в современной экономике .....	1506
<b>Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович</b>	
Анализ конкурентной среды: примеры, методы и этапы .....	1512
<b>Садикова Раъно Абдуллаевна</b>	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili .....	1518
<b>Djalilov Dostonbek Abduaazizovich</b>	
Исследование методов бетонной смеси.....	1524
<b>Шарипова Мадина Конгратбаевна</b>	
Oilaviy biznesni boshqaruva tuzilmasi .....	1532
<b>Tosho'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>	
Strategies for Advancing Green Construction:	
The Influence of Business Investment in Research and Development .....	1537
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b>	
Kichik tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishning asosiy shart va tamoyillari .....	1545
<b>Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li</b>	
Оптимизация корпоративного управления через сбалансированное финансовое стратегирование.....	1549
<b>Ахмедов Дилшод Турсункулович</b>	
Milliy iqtisodiyotning o'sishida agroklasterlarni shakllantirish va samaradorligini oshirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.....	1553
<b>Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich</b>	
Improving the Efficiency of the Organization Through the use of Innovative Models of Personnel Management.....	1559
<b>Bahodurova Sulhiya Azizhojaevna, Akhmedov Usmonjon Khaidarjonovich, Li Marina Rudolfovna, Romashkin Roman Anatolyevich</b>	
Факторы влияющие на экономический рост в развитии экономики Нового Узбекистана .....	1569
<b>Мамедов Хусан, Хамраев Олимжон Яхибоевич</b>	
Sug'urta bozori bo'yicha risklarni baholash va obyektni sug'urtaga qabul qilishda anderrayting xizmatining tutgan o'rni.....	1576
<b>Sayfulllo Mirzoyev</b>	
Klaster korxonalar faoliyatini takomillashtirishda soliq yukini yengillashtirilishi.....	1581
<b>Jabbarov Mashrab Ismoil o'g'li</b>	
Xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllarining asosiy belgi va xususiyatlari .....	1586
<b>Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li</b>	
Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini baholash .....	1589
<b>Vahobov Davron Abdujalolovich</b>	
Globalashuv jarayonlarini chuqurlashuvi davrida xalqaro turizmni rivojlanishi.....	1597
<b>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</b>	
Bandlikni taminlashda bo'sh ish o'rinalarini yaratish.....	1602
<b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>	
Theoretical foundations of authenticity in leadership .....	1605
<b>Esanova Shohida Utkirovna</b>	
Masofaviy ta'limdi tashkil etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1611
<b>Normurodov Akmal Muhiddin o'g'li</b>	
O'zbekiston turizmining barqaror rivojlanishida shoping turizmining ahamiyati .....	1616
<b>Fayyoza Xalimova Nafasovana</b>	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari.....	1619
<b>Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li</b>	
Iqtisodiy-matematik usullar asosida sanoat korxonalarining investitsiyalari samaradorligini oshirish yo'llari .....	1625
<b>Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li</b>	
Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1630
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	



# YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

**Raxmonov Lochin To'xtamishovich**

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilg'or xorijy mamlakatlar tajribasi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, "Big Data", "Cloud Computing", "Artificial intelligence", "Blockchain technology", internet.

**Abstract:** This article reveals the experience of advanced foreign countries in the use of digital technologies in the fight against the shadow economy.

**Key words:** digital economy, "Big Data", "Cloud Computing", "Artificial intelligence", "Blockchain technology", internet.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается опыт передовых зарубежных стран по использованию цифровых технологий в борьбе с теневой экономикой.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, "Big Data", "Cloud Computing", "Artificial intelligence", "Blockchain technology", интернет.

## KIRISH

Bugungi kunda internet axborot tarmog'ining jadal o'sib borayotgani va rivojlanayotganligini undan foydalanuvchilar sonining oshib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Xususan, foydalanuvchilar segmenti ham yildan-yilga o'zgarib bormoqda, yoshlar, katta yoshdagilarning kompyuter savodxonligi darajasi oshib bormoqda. Aloqa vositalari ham yaxshilanmoqda va mamlakat aholisining yarmidan ko'pi turli xil ilovalar orqali axborot almashish bilan shug'ullanmoqda. Elektron tizim orqali axborot almashinishning turli usullaridan foydalanish va uning tez tarqalishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga olib keladi.

XXI asrning boshlanishi raqamli texnologiyalarini jadal rivojlantirish, axborot makonidagi inqilob va iqtisodiyotning globallashuvining tezlashishi bilan ajralib turdi. Ijtimoiy va biznes jarayonlarida ma'lumotlar olingan resurslar va ulardan foydalanish samaradorligi oshgan holda bilimga aylantiriladi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib boradi. Bozor subyektlarining faoliyatida raqamli transformatsiyalarning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirish hisoblanadi [1]. Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy isloh qilishning hozirgi bosqichida atrof-muhit jamiyatning institutsional tuzilishi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi va asosan yangi tushunchalar va yondashuvlarni shakllantirishga ehtiyoj tug'diradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayoni aholi turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi, shuningdek, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shunga ko'ra, virtual iqtisodiy maydonda ishtirok etish mamlakatlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Albatta, jahon miqyosidagi tezkor va global rivojlanish, shuningdek, barcha turdag'i mobil aloqa raqamli iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, Internet rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalariga va ijtimoiy sohalarga, jumladan, ishlab chiqarish, tibbiyot, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot, uning shakllari va ta'sir etuvchi omillarining ilmiy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: D.Tapscott<sup>[3]</sup>, N.Lane<sup>[4]</sup>, T.Mesenbourg<sup>[5]</sup>, M.Kastells<sup>[6]</sup>, B.Panshin<sup>[7]</sup>, N.Negroponte<sup>[8]</sup>, A.Sokolov<sup>[9]</sup>, A.Kunsman<sup>[10]</sup>, R.Buxt<sup>[11]</sup>, R.Xiks, M.Polojixina<sup>[12]</sup>, I.Strelkova<sup>[13]</sup>, M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, M.Kastells, R.A.Solou<sup>[2]</sup> va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indekslari (The ICT Development Index (IDI)) – Birlashgan Millatlar Xalqaro Telekommunikatsiyalar Ittifoqi tomonidan xalqaro miqyosda qabul qilingan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko'rsatkichlari asosida chop etilgan indeks<sup>[14]</sup>. Bu axborot jamiyatini o'lchash uchun eng muhim ko'rsatkichlarni taqqoslashning muhim vositasidir. IDI davlatlar, operatorlar, rivojlanish agentliklari, tadqiqotchilar va boshqalar raqamli bo'linishni o'lchash va AKT ko'rsatkichlarini davlatlar ichida va mamlakatlardan o'tasida solishtirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan standart vositadir. AKT rivojlanish indeksi 11 ta AKT ko'rsatkichlariga asoslangan, ular uchta guruhga bo'linadi: kirish, ulardan foydalanish va qobiliyat.

Kirish sub-indeksi AKTga tayyorligini ta'minlaydi va beshta infratuzilma ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:

- statsionar telefon abonentlari / 100 kishi;
- mobil uyali aloqa abonentlari / 100 kishi;
- har bir foydalanuvchi uchun xalqaro Internet tarmog'ining kengligi (bit / s);
- kompyuter bilan ta'minlangan uy xo'jaliklari ulushi;
- Internetga ulangan uy xo'jaliklarining ulushi.

Foydalanish sub-indekslari AKT zichligi bilan ajralib turadi va uchta AKT zichligi va foydalanish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:

- Internetdan foydalanadigan jismoniy shaxslar foizi;
- 100 (100) aholi uchun doimiy (simli) – keng polosali ulanish;
- Har 100 aholi uchun sun'iy yo'ldoshli keng polosali ulanish (sun'iy yo'ldosh, yerusti va eng kam 256 kbit/s gacha bo'lgan faol mobil aloqa).

Sub-indeks AKT imkoniyatlarini yoki ko'nikmalarini kerakli indikatorlar sifatida egallaydi. Mamlakatlarning keyingi ikki indekslari AKT imkoniyatlarini yoki qobiliyatlarini majburiy kiritish indikatorlari sifatida egallaydi. U uchta proksi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi va IDI hisoblashda boshqa ikki pastki ko'rsatkichga nisbatan kamroq yuklama beriladi.

- kattalar savodxonligi darajasi;
- umumta'lim maktablarida o'qishning o'rtacha darajasi;
- umumiyl qamrab olish darajasi.

2015-yilda raqamli iqtisodiyot va Jamiyat indeksi bo'yicha Yevropa Ittifoqi 0,47 balni qo'lga kiritdi<sup>[15]</sup>. Indeks quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil etildi:

### 1. Ulanish.

Ulanish hajmi keng polosali infratuzilmani joylashtirishni va uning sifatini o'lchaydi. Tez va ultratez keng polosali ulanish xizmatlaridan foydalanish raqobatbardoshlikning zarur shartidir.



## 2. Inson kapitali – raqamli ko'nikmalar.

Inson kapitali o'lchami raqamli imkoniyatlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'lchaydi.

## 3. Fuqarolarning Internet-xizmatlaridan foydalanishi.

## 4. Raqamli texnologiyalar va biznes subyektlari integratsiyasi.

## 5. Raqamli davlat xizmatlari.

Raqamli davlat xizmatlari hajmi elektron hukumat va elektron tibbiy xizmatlarga yo'naltirish bo'yicha davlat xizmatlarini raqamlashtirishni o'lchaydi. Davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish davlat boshqaruvi, fuqarolar va biznes uchun samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin.

## 6. AKTni tadqiq etish va rivojlantirish.

Tadqiqot va rivojlanish AKT Yevropa Komissiyasi tomonidan taqdim etilgan AKT sohasi va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va Yevropa Komissiyasining iltimosiga binoan o'tkaziladigan tashqi tadqiqotlar tahlili.

Yevropa Ittifoqi (YEI) so'nggi yillarda barcha toifadagi raqamli iqtisodiyot va jamiyat indekslarini yaxshilagan bo'lsa-da, aloqa guruhida eng yuqori ko'rsatkich (0,51 dan 0,55 gacha) amalga oshirildi. Bu asosan mobil aloqa qamrovini kengaytirish (100 kishiga 58 dan 67 tagagacha) va yuqori tezlikda qamrab olish (yuqori tezlikdagi internet ulushi 18 dan 22 foizgacha oshdi) hisobiga amalga oshdi. Fuqarolarning asosiy raqamli ma'lumotlashish darajasi ham oshdi (Yevropa Ittifoqi aholisining 55% dan 59% gacha), ammo raqamli iqtisodiyotni yanada samarali ishlatish uchun aholini zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, axborotlashtirish sohasidagi ijobji siljishga qaramasdan, raqamli iqtisodiyotning ulkan salohiyati hali Yevropaliklar tomonidan qo'llanilmayapti. Shunday qilib, Yevropa Komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda korxonalarining 41 foizi raqamli texnologiyalarni qo'llamaydi va ularning faqat 2 foizigina raqamli texnologiyalarning zaruriyatini tan olishadi [16].

Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya va Niderlandiya YEI da eng ilg'or raqamli iqtisodiyotga ega, Luksemburg, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Estoniya, Ruminiya, Gretsya va Italiya indeks bo'yicha eng past ko'rsatkichiga ega.

2019 yilda barcha a'zo davlatlar indeks tarkibida yaxshilandi. Irlandiya va Ispaniyada esa, eng yuqori darajaga erishildi (Yevropa Ittifoqi o'rtacha 3.2 ga qaraganda 5 ballgacha). Boshqa tomonidan, Daniya va Portugaliyada (2 balldan past) past o'sish bo'ldi.

Raqobatbardoshlik, tadbirkorlik va innovatsiya darajasini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar salohiyatidan foydalanish zarurligi "Tadbirkorlik-2020" tadbirlar rejasida alohida qayd etildi. Yevropa Komissiyasi raqamli inqilob orqali taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishni, mavjud ishbilarmonlarning innovatsion o'zgarishlarini rag'batlantiradi va Yevropada raqamli biznesni qo'llab-quvvatlaydi.

Raqamli texnologiyalardan yanada samarali foydalanish YEI mamlakatlari tomonidan raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishni oshirish, shuningdek, ish o'rinnlari sonining o'sishi uchun muhim vosita sifatida tan olingan. Natijada, bu masala "Tadbirkorlik 2020" tadbirlar rejası bilan bir qatorda qator tashabbuslarda kun tartibida birinchi bo'lib, jumladan:

- YEI-2020 dasturining tashabbuslari – Globalashuv davrida sanoat siyosati (Industrial Policy in an Era of Globalization), Yevropa uchun raqamli kun tartibi (The Digital Agenda for Europe (DAE)), Innovatsiyalar birligi;
- Yevropa uchun kichik biznes to'g'risidagi qonun (The Small Business Act for the EU), 2008;
- "O'zgaruvchan muhitda elektron biznes siyosatining uyg'unligi: Go Digital tashabbusi va kelajakdag'i muammolarning mavjudligi;
- "Tadbirkorlik-2020" harakat rejası 2020-yilgacha bo'lgan davrda siyosat va asosiy ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish uchun zamin yaratdi. Dastur besh toifaga bo'lingan, ularning har biri raqamli tadbirkorlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ta'riflaydi.

YEI da Fransiya raqamlash sohasidagi yetakchilardan biri hisoblanadi. Fransiyada infratuzilmaning yuqori sifat va standartlar asosida bo'lishi allaqachon an'anaga aylanib bo'lgan: yo'llar, suv liniyalari, uy-joy communal xo'jaligi obyektlari va hatto park joylari. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni takomillashtirib borish davlat strategiyasining asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bundan tashqari, butun mamlakat bo'ylab axborot xavfsizligini rivojlantirishga, korxonalar yoki raqamli mahsulotlarni shaxsiy foydalanishni unutmaslik kerak.



Bugungi kunda Fransiya “Cisco Systems, Inc” bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu kompaniya Fransiyaning iqtisodiy o’sishini tezlashtirish, raqobat va ish bilan ta’minlash darajasini oshirishga yordam beradi.

“Cisco Systems, Inc” tarmoq akademiyasi mamlakatning 200 mingga yaqin odamlari uchun kelajakdag‘i asosiy texnologiyalar uchun o’quv dasturlarini tashkil etadi, shuning uchun fransuz tadbirdorlari mamlakatning raqamlashtirishda ishtiroy etishlari uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarga ega bo’lishlari talab etiladi. Bundan tashqari, yangi innovatsion markazlar tashkil etilmoqda, ular dasturlarni ishlab chiqishda yordam berish bilan shug’ullanishmoqda. Natijada, keng qamrovli Internetning hali amalga oshmagan salohiyati tufayli Fransiya uch oy ichida ushbu tashabbusni amalga oshirish, eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish va resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ldi. Ushbu loyihaning qiymati 720 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi va unda 1,1 million kishi faoliyat olib borishi rejalashtirilgan [15].

2020-yil 1-choragida ruslarning raqamli savodxonlik ko’rsatkichi 0 dan 100 gacha shkala bo’yicha 58 punktni tashkil etdi. Indeks DigComp metodologiyasi bo’yicha hisoblab chiqilgan. DigComp (The European Digital Competence Framework) raqamli savodxonlikni har tomonlama baholash bo’yicha yetakchi xalqaro yondashuv hisoblanadi. Ushbu konsepsiya doirasida raqamli kompetensiyalar tahlili 5 ta asosiy parametr bo’yicha amalga oshiriladi: axborot savodxonligi; kommunikativ savodxonlik; raqamli tarkibni yaratish; raqamli xavfsizlik; raqamli muhitda muammolarni hal qilish ko’nikmalari.

Milliy elektron ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish dasturi Janubiy Koreyada 1995-yildayoq qabul qilingan edi. Koreya Respublikasi Ta’lim va personalni boshqarish vazirligi hamda Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo’yicha axborot xizmati – “Korea Education and Research Information Service – KERIS tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dastur to’rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – 1996-2000-yillar. Ushbu davrda mamlakatda “Education Network – Edunet” axborot xizmati shakllantirilib, ta’lim muassasalari pedagoglari raqamli ta’lim texnologiyalari bo’yicha qayta tayyorlanishlari bilan bir qatorda aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonligi oshirildi.

2001–2005-yillarni qamrab olgan ikkinchi bosqichda “Education Network – EDUNET” axborot xizmati takomillashtirildi. O’qitish va ta’lim markazi – “Teaching and learning center” hamda kiber uy ta’limi tizimi – “Cyber Home Learning System – CHLS” ta’sis etildi, shuningdek, raqamli kutubxonalar tashkil qilindi. Bu mamlakat miqyosida elektron ta’limni joriy qilish imkoniyatini yaratdi.

“CHLS” tizimi ta’lim muassasalarida o’qiyotganlarga o’z bilimlarini mustaqil oshirishga mo’ljallangan. Mazkur kontent talaba yoshlarning qiziqishlari va bilimi darajasidan kelib chiqqan holda tegishli o’quv dasturlarini tanlash, repetitorlarga murojaat qilmasdan qo’shimcha ma’lumotlarni o’zlashtirish imkoniyatini yaratadi. U, ayniqsa, kam ta’minlangan oilalar uchun qo’l keladi.

Uchinchi bosqich – 2006–2010-yillarda Janubiy Koreya jahon elektron ta’lim bozoridan mustahkam o’rin oldi. Bu har yili davlat g’aznasiga 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad keltira boshladi.

2011–2015-yillardagi to’rtinchi bosqichda mamlakatda shakllantirilgan elektron ta’lim tizimi tubdan takomillashtirildi. Mamlakatda elektron ta’limni muvofiglashtirish bo’yicha 17 ta mintaqaviy bo’lim – “Metropolitan & Provincial Offices of Education – MPOES” shakllantirildi.

Janubiy Koreyada elektron ta’lim tizimini shakllantirish quydagi algoritm asosida amalga oshirildi:

- elektron ta’lim – Electronic education (E-learning);
- mobil ta’lim – Mobile-learning (M-learning);
- yalpi ta’lim – Ubiquitous-learning (U-learning);
- interaktiv ta’lim – Smart-education.

Janubiy Koreyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang’ich, o’rtalama oliy ta’lim muassasalarida keng joriy etilgan. Mamlakatdagi universitetlarning 83 foizi “E-learning” tizimi bilan qamrab olingan. Bundan tashqari, 17 ta kiber universitet mavjud bo’lib, ularda onlayn tartibida 18 yoshdan 60 yoshgacha bo’lgan 40 ming talaba tahsil oladi. Ushbu talabalar bilimini nazorat qilishning dasturiy ta’minoti yaratilgan. “EDUNET” internet portali ulkan miqdordagi videodarslar, elektron kitoblar, o’quv materiallarining ko’chirmalariga ega. Undan 6,7 mln. kishi foydalanadi. Har kun portalga 410 ming kishi kirib, ular 27 mln. sahifa darsliklar va boshqa zarur o’quv materialari bilan tanishadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlarda o’xshash maqsadlar belgilangan bo’lishiga qaramay, ularga erishish yo’llari har xil. Bu, albatta, nafaqat ustuvorliklarning xilma xilligi, balki, milliy innovatsion tizimlar va boshqaruv usullarining o’ziga xosligi bilan belgilanadi. Xususan, Buyuk Britaniyada raqamli xizmat ko’rsatish sohasi, Germaniyada raqamli ishlab chiqarish ustuvorlik qilsa, raqamli tashabbus Xitoy va AQSH da xususiy xarakterga ega (1.2-jadval).



**2-jadval:** Xorijiy mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan raqamlashtirish milliy strategiyalarining yillar kesimidagi ko'rinishi

No	Mamlakatlar	Dastur nomi	Joriy qilingan yili
1	Daniya	Manufacturing Academy of Denmark (MADE)	2001
2	Belgiya	Made different – Factories of the future	2009
3	Chexiya	Průmysl 4.0	2009
4	Ispaniya	Industria Conectada 4.0	2009
5	Avstriya	Industrie 4.0 Oesterreich	2009
6	Vengriya	IPAR4.0 National Technology Initiative	2009
7	Italiya	Industria 4.0 и Fabbrica Intelligente	2009
8	Lyuksemburg	Digital For Industry Luxembourg	2009
9	Niderlandiya	Smart Industry	2009
10	Slovakiya	Smart Industry	2009
11	Portugaliya	Indústria 4.0	2009
12	Shvetsiya	Smart Industry.	2009
13	Kanada	Торонтода АКТ хаби	2010
14	Germaniya	Industrie 4.0	2011
15	Janubiy Koreya	Creative economy	2013
16	Singapur	Smart Nation	2014
17	Yaponiya	Smart Japan ICT Strategy	2014
18	Qozog'iston	Raqamli Qozog'iston	2015
19	Xitoy	Internet Plus	2015
20	Fransiya	Alliance pour l'Industrie du Futur/Nouvelle France Industrielle	2015
21	Hindiston	Digital India	2015
22	Buyuk Britaniya	Digital Strategy	2017
23	Isroil	The Digital Israel, National Initiative:	2017
24	Rossiya	"Цифровая экономика Российской Федерации"	2017
25	BAA	Fourth Industrial Revolution Strategy	2017
26	Mist	ICT Policy Review: National E-commerce Strategy for Egypt	2018

"Indústria 4.0"ning vujudga kelishi mamlakatlar iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qildi. Natijada ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida raqamlashgan texnologiyalarning kirib kelishi namoyon bo'limoqda. "Aqli shahar", "aqli qishloq" xo'jaligi kabi tushunchalar iste'molga shunchalik darajada tez kirib keldi-ki, bugungi rivojlanishni ushbu texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

"The Boston Consulting Group" ekspertlarining fikricha, "ba'zi mamlakatlar uchun bu raqamli ekotizimning evolyutsion rivojlanishining mantiqiy davomi sifatida yangi iqtisodning onlayn va offlayn o'rtafiga o'zaro bog'liqlik tizimini to'liq amalga oshirish qobiliyatidir. Bu esa, yetakchi mamlakatlar uchun yaqin kelajakda kutiladigan asosiy natijadir. Aqli davlatlar uchun raqamlashtirish – uzoq muddatda real raqobatbardoshlikni va barqarorlikni saqlab qolish imkonini berdi. Raqamli iqtisodiyot Internet-banking, onlayn-tijorat, Internet-marketing, Internet-o'yinlar va boshqalardan iborat onlayn xizmatlarni taqdim etish bo'yicha xizmatlarning rivojlanishini ta'minladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotning o'sishi uchun milliy IT-sektorni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni yaratishni rag'batlantirish va ularni xalqaro darajada integratsiyasini ta'minlashning ilmiy asosini ishlab chiqish talab etadi. Buning uchun ushbu sohada investitsiya va tadbirdorlik faoliyatini rag'batlantirish O'zbekistonning xalqaro reytinglarda pozitsiyasini yaxshilaydi. Jamiatning barcha qatlamlari – davlat, xususiy sektor, fuqarolik jamiyatni raqamli iqtisodiyot faoliyatida ishtirok etishlari maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotga bo'lgan ishonchni taominlaydigan axborot va innovatsion texnologiyalarning axborot xavfsizligini ta'minlash muhim komponent hisoblanadi.



Raqamli iqtisodiyot nuqtayi nazaridan eng ilg'or mamlakatlarning globallashuv davridagi rivojlanishi avvalo hukumatni iqtisodiy islohotlarni raqamlashtirishga jalb etish tufayli bo'lsa, ikkinchidan, aholi qatlamining raqamli iqtisodiyot bo'yicha madaniyatni shakllanayotganligi bilan belgilanadi. Ularda axborot texnologiyalari barcha sohalarda faol ravishda joriy etilmoqda, barcha davlat xizmatlari elektron formatga aylantirilib borilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tishda, avvalo, o'zimizda takomillashtirilgan uzlusiz sifatli xizmat ko'rsatadigan infrastruktura, axborot texnologiyalari va malakali kadrlar, sifatli davlat xizmatlari va tashqi iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishini ta'minlash talab etiladi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Соломатин М.С., Сайбель Н.Ю. Роль цифровой экономики в развитии государства // Институциональные и инфраструктурные аспекты развития различных экономических систем: сб. ст. Междунар. науч.-практ. конф.: в 2 ч. –2017. –С. 137–139.
2. Цифровые дивиденды. Обзор Доклада о мировом развитии. – Всемирный банк, –2016. –с.22.
3. Tapscott Don. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. –1996;
4. Lane Neal. Advancing the Digital Economy into the 21st Century (Assistant to the US President for Science and Technology), 1999.
5. Mesenbourg Thomas. Measuring the Digital Economy (US Bureau of the Census), 2001.
6. Кастеллс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. –Екатеринбург: У – Фактория. –2004.
7. Паньшин, Б. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития / Б. Паньшин // Наука и инновации. – 2016. – Т. 3. – № 157. – С. 17-20.;
8. Negroponte N. Being Digital / N. Negroponte. – NY: Knopf, 1995. – 256 р.;
9. Соколов И.А. Цифровая экономика Западной Австралии – умные горнорудные и нефтегазовые предприятия, железные дороги, морские порты и формализованные онтологии. – <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-zapadnoy-avstralii-umnye-gornorudnye-i-neftegazovye-predpriyatiya-zheleznye-dorogi-morskie-porty-i>;
10. Кунцман А.А. Трансформация внутренней и внешней среды бизнеса в условиях цифровой экономики // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. – 2016. – № 11(93). – с. 1.;
11. Бухт Р., Хикс Р. (2018) Определение, концепция и измерение цифровой экономики // Вестник международных организаций. –Т. 13. –№ 2. С. 143-172 (на русском и английском языках). DOI: 10.17323/1996-7845-2018-02-07.;
12. Положихина М.А. Цифровая экономика как социально-экономический феномен. – <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-kak-sotsialno-ekonomicheskiy-fenomen/viewer>;
13. И.А.Стрелкова Цифровая экономика: новые возможности и угрозы для развития мирового хозяйства. –<https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-ekonomika-novye-vozmozhnosti-i-ugrozy-dlya-razvitiya-mirovogo-hozyaystva-viewer>;
14. BMT Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi ma'lumotlari. <https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Pages/publications/mis/methodology.aspx>.
15. <http://www.ictsd.org/bridges-news>.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

---

2023. № 11-12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

